



EVOLUTION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS AND VALUES IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Islambek Sadikov

PhD student at the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital transformation, environment, social consciousness, value, social organization, personal spirituality.

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

Abstract: Three articles examine the manifestation of social consciousness and culture as a social phenomenon in the process of transformation. Particular attention is paid to the changes in social consciousness that have occurred as a result of the rapid penetration of digital technology into our daily lives. The article analyzes the impact of the environment on social and personal relationships and its role in ensuring social activity and stability.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA IJTIMOIIY ONG VA QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI

Islombek Sodiqov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti tayanch doktoranti
sodislom@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, raqamli muhit, ijtimoiy ong, qadriyat, ijtimoiy barqarorlik, shaxs ma'naviyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiyasi jarayonida ijtimoiy ong va madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi o'rganiladi. Raqamli texnologiyalarning kundalik hayotimizga tezlik bilan kirib borishi natijasida shaxsning ijtimoiy ongida va mas'uliyatida yuz berayotgan o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada raqamli muhitning jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlariga ta'siri hamda ijtimoiy faollik, barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi.

ЭВОЛЮЦИЯ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Исламбек Садилов

Докторант Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека

sodislom@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: трансформация, социальное социальная духовность.	цифровая среда, ценности, личная	Аннотация: Три статьи исследуют проявление социального сознания и культуры как социального феномена в процессе трансформации. Особое внимание уделяется изменениям в социальном сознании, произошедшим в результате быстрого проникновения цифровых технологий в нашу повседневную жизнь. В статье анализируется влияние окружающей среды на социальные и личные отношения и ее роль в обеспечении социальной активности и стабильности.
---	---	---

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy va texnologik modernizatsiya jarayoni bo'libgina qolmay, balki inson tafakkuri, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining evolyutsiyasini ham belgilovchi muhim omilga aylandi. Axborot oqimining tezlashuvi, virtual kommunikatsiya maydonlarining kengayishi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida jamiyatning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy mezonlari, shaxs fikrlashi, uning dunyoqarashi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy ong va qadriyatlar evolyutsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot, ta'lim, boshqaruv, madaniyat va kundalik hayotga chuqur integratsiyalashuvi natijasida jamiyat tuzilmasi va funksiyalarining sifat jihatdan o'zgarish jarayoni raqamli transformatsiya deyiladi. Ushbu jarayon insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tarqatish usullarini o'zgartirib, ijtimoiy ong shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shaxs raqamli transformatsiya jarayonida qatnashuvchi asosiy subyektlardan biridir.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, raqamli platformalar hamda dasturlar jamiyat fikrini shakllantirishda muhim omilga aylandi. Natijada an'anaviy kommunikatsiya shakllari bilan bir qatorda virtual ijtimoiy makon ham ijtimoiy ongning yangi maydoniga

aylandi. Ijtimoiy ong- jamiyatning umumiy qarashlari, tasavvurlari, e'tiqodlari va qadriyatlar tizimining yig'indisidir. Raqamli transformatsiya jarayonida ijtimoiy ong quyidagi yo'nalishlarda o'zgarib bormoqda:

Birinchidan, axborot olish tezligi va hajmining ortishi inson tafakkurining parchalanishiga olib kelmoqda. Qisqa va tezkor axborot iste'moli chuqur tahliliy fikrlash o'rnini ko'pincha yuzaki idrok bilan almashtirmoqda. Ya'ni, bir butun yaxlitlik yo'qolib buzilish jarayoni sodir bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, shaxsning tafakkur birligi hamda axborotni to'g'ri qabul qilishda salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, virtual identifikatsiya jarayoni kuchaymoqda. Shaxs o'zining ijtimoiy mavqeini nafaqat real hayotda, balki raqamli platformalarda ham namoyon etishida ko'rinadi. Ya'ni, shaxsning internet olamida va raqamli platformalarida "raqamli ko'rinishi (digital view)" hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy ongda "raqamli shaxs" fenomenining shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu identifikatsiya real shaxsga to'liq mos bo'lishi ham, qisman mos bo'lishi ham mumkin. Shu o'rinda virtual identifikatsiyaning asosiy elementlari haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Profil ma'lumotlari; shaxsning ijtimoiy tarmoqdagi ism, taxallus (nick), rasm ma'lumotlarida ko'rinadi.

- Raqamli xulq-atvor; biror xabar yoki jarayonga postlar, izohlar va like orqali o'zini munosabatini bildirishda namoyon bo'ladi.

- Qiziqishlar va qarashlar; ijtimoiy tarmoqdagi kuzatiladigan guruhlar, sahifalarida namoyon bo'lishi

Qadriyat - ma'lum muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asosini tashkil etadi. Insoniyat hamda jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, tinchlik, axloq, halollik, ezgulik, totuvlik, tarbiya, xulq kabi tushunchalar qadriyat hisoblanadi. Jadid ma'rifatparvarlarimizdan A.Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli asarida "insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur" [1] deya ilm va axloq tushunchalariga ta'rif berib o'tadi. Aynan bu yerda yuqoridagi tushunchalar qadriyat vazifasida kelmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida jamiyat hayotining barcha sohalariga texnologiyalarning kirib borishi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar tizimida quyidagi o'zgarishlarga olib keldi:

Axborot erkinligi va ochiqlik qadriyatining kuchayishi;

Axborot erkinligi shaxsning axborotni erkin izlash, saqlash hamda tarqatish huquqi bo'lib, bu demokratik jamiyatning eng muhim qadriyatlaridandir. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot erkinligi har doimgidanda ko'ra kuchaydi. Bu jarayon axborot manbalarining ko'payishi bilan xarakterlanadi. Internet va raqamli platformalar orqali axborotga kirish imkoniyati kengaymoqda. Foydalanuvchilar Google, You tube, Telegram kabi platformalar orqali tezkor axborot olishmoqda.

Shaxsiy erkinlik va o'zini ifoda etish imkoniyatining kengayishi;

Shaxsiy erkinlik insonning o'z fikri, qarashi, qiziqishi va hayotiy pozitsiyasini bosimlarsiz tanlash va ifoda etish huquqidir. O'zini ifoda etish esa shaxsning ichki dunyosi, identiteti va ijtimoiy pozitsiyasini turli shakllarda namoyon etish imkoniyatini anglatadi. Ushbu davrda axborot va fikr bildirish erkinligi oshishini ko'rishimiz mumkin. Tahlillarimizga ko'ra, bugungi kunda har bin inson uchun ijtimoiy tarmoq shaxsiy fikr va ijod uchun ochiq maydonga aylandi. Ijtimoiy chegaralar ham qisqardi. Ya'ni, avvalari muhokama qilinmagan mavzular bugungi kunda ochiq muhokama qilinmoqda. Bu esa fikrlar xilma-xilligi va rang barangligiga olib kelmoqda.

Global madaniy ta'sirlar natijasida madaniy gibridlikning shakllanishi;

Globallashuv sharoitida identifikatsiya yangi bosqichga ko'tarildi. R. Robertson ta'kidlaganidek, "globallashuv jarayonlari bir tomondan madaniyatlarning umumlashuvi va kosmopolitizmni kuchaytirsa, boshqa tomondan milliy va etnik identitetlarni qayta faollashtirmoqda" [2] Bu ikki oqim - universalizm va differensializm zamonaviy jamiyatlarda bir vaqtning o'zida faoliyat yuritmoqda.

Individualizmning kuchayishi.

Ayni shu jarayonlar bilan bir qatorda ayrim an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, avlodlar o'rtasidagi tafovutning kengayishi kabi muammolar ham yuzaga keltirmoqda. Ya'ni, jamiyatda shaxs manfaatlari, uning huquqlari jamoaviy qadriyatlardan ustunroq ahamiyat kasb eta boshladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya sharoitida qadriyatlar evolyutsiyasi ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, yangilanish va modernizatsiya; ikkinchi tomondan, ma'naviy identitetni saqlab qolish zarurati shakllana boshladi. O'z navbatida, induvidualizmning kuchayishi shaxsiy erkinlikning kengayishi, o'zini identifikatsiya qilishning individuallashuviga, mas'uliyatning shaxsga ko'chishi kabi faoliyatlarda namoyon bo'ldi.

Yuqoridagi jaryonlardan kelib chiqib, raqamli madaniyat va ma'naviy xavfsizlik masalalari haqida to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Chunki, raqamli makonda faoliyat yuritish ma'lum darajada raqamli madaniyatni talab etadi. Raqamli madaniyat- bu axborotdan mas'uliyatli foydalanish, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligini ta'minlash va virtual etikaga rioya qilish

ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Hozirgi globallashuv jarayonida barkamol avlodni har tomonlama ma'nan xavfsiz jarayonni yaratish bizdan doimgidanda ko'p e'tibor talab qilmoqda. Ma'naviy xavfsizlik o'zi nima? Shaxs, jamiyat va ma'lum bir millatning axloqiy qadriyatlari, ma'naviy barqarorligini turli xil yot, zararli g'oyalar, axborot xurujlari ta'siridan himoya qilish jarayoniga ma'naviy xavfsizlik deb aytiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirda raqamli makonda ma'naviy xavfsizlikka tahdidlar axborot xurujlari va manipulyatsiya ko'rinishida tarqalmoqda. Bunda soxta axborot, propaganda, ongli va ongsiz ravishda shaxs qarashlarini boshqarish sodir bo'lyapti. Natijada esa shaxs tanqidiy fikrlash qobiliyati yo'qolmoqda.

Ikkinchidan, ommaviy madaniyatning bosimi kuchayadi. Ma'naviy chuqurlikdan yiroq trendlar paydo bo'lib, yoshlar trend orqasidan quvish kabi holatlar ko'payadi. Bundan tashqari, milliy va diniy qadriyatlarga zid g'oyalar keng tarqaladi. Bu holat keng jamoatchilik nazariga tushib, UNESCO raqamli madaniyatda madaniy xilma-xillikni saqlash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Axborot xurujlari ko'paygan taqdirda ham doimo yoshlarimiz uchun mafkuraviy immunitet hozir bo'lishi lozim. Ularda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash yo'lida avvalo, raqamli savodxonlikni oshirish; soxta va zararli kontentni farqlay olish, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish zarur. Jamiyatda qadriyatlar transformatsiyasi globallashuv va raqamli muhit ta'sirida yangi qiyofa olmoqda [3]. Shuningdek, qadriyatlarga asoslangan raqamli muhitni shakllantirish; bunda yoshlar ongida "raqamli mas'uliyat" tushunchasini mustahkamlash; tarbiyaviy, ma'naviy hamda ma'rifiy kontentlarni yaratish va ko'paytirish lozimligi uqtiriladi. Bugungi kunda ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalash muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Ma'naviyatli inson barcha yot g'oyalarga o'z dunyoqarashi, axloqi hamda o'z qadriyatlari bilan kurasha oladigan inson hisoblanadi. Chunki "ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarshlarining mezonidir" [4] desak fikrimiz o'z tasdiqg'ini ifoda etadi deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy ong va qadriyatlar evolyutsiyasi jarayonida ma'naviy xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kiberjinoyatchilik, soxta axborot, radikal g'oyalar tarqalishi jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat texnologik modernizatsiya, balki ma'naviy-axloqiy immunitetni mustahkamlash bilan uyg'un holda olib borilishi lozim.

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida qadriyatlar hamda ijtimoiy ong tushunchalari birinchi bor tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, "raqamli ong-raqamli qadriyatlar-raqamli mas'uliyat" konsepsiyasi taklif qilindi. Bu esa bugunda yoshlar ongida raqamli-ma'naviy immunitetni shakllantirish zarurati mavjudligini isbotladi.

Xulosa davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va ta'lim muassasalari hamkorligida ijtimoiy ongni sog'lom shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish taklifi ham muhim voqeliklardan biri bo'lmoqda. Qo'shimcha holatda taqdqiqotda raqamli transformatsiya jarayonida yoshlar ijtimoiy ongida raqamli-ma'naviy immunitet tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi. Bu esa o'z navbatida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" www.ziyouz.com 2-b
2. R.Robertson Globalization: Social Theory and Global Culture, SAGE Publications, London 1992
3. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning takomillashuvi jarayoni. Actual Problems of Humanities and social Sciences, 2024
4. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.